

## Ilm-fan va ta'lif sohasidagi hamkorlik

O'zR FA Zoologiya instituti Entomologiya laboratoriysi xodimlarining Termiz davat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Zoologiya kafedrasiga tashrifi amalga oshirildi.

Tashrif davomida "O'zbekiston entomofaunasining xilma-xilligini o'rganish hamda zamonaviy holatini baholash" mavzusida ilmiy seminar tashkil etildi. Seminarda b.f.d. Gulnora Mirzayeva tomonidan O'zR FA Zoologiya institutida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar, xorijiy aloqalar, OTMlар bilan ilm-fan va ta'lif integratsiyasi borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumot berildi.



TerDU talabalarini Entomologiya sohasiga qiziqishlarini uyg'otish, ilm-fanga yo'naltirish yuzasidan targ'ibot-tashviqot qilish maqsadida hasharotlarni tabiatdan yig'ish, tog'li hududlarda tarqalgan hasharotlar entomofaunasini o'rganish, turli yorug'lik tutqichlaridan foydalangan holda tungi hasharotlarni yig'ish va suvda yashovchi hasharotlarni yig'ish usullari bo'yicha b.f.f.d., (PhD) Dilshod Musaev hamda ilmiy xodim Askar Axmedovlar tomonidan master klasslar o'tkazildi.





Shuningdek, iqtidorli magistr va bakalavr talabalarga Xitoy Fanlar akademiyasi tomonidan e'lon qilingan UCAS va CAS TWAS dasturi bo'yicha seminar treninglar o'tkazildi.

Seminardan so'ng, Termiz davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti dekani b.f.d. Alisher Xurramov, Zoologiya kafedrasи mudiri b.f.n. Xasan Tangirov, kafedra professor o'qituvchilari, magistr va bakalavr talabalari bilan yoshlarni ilm-fanga yo'naltirish, sohada mavjud muammolar va kelajakdagi istiqbolli rejalar yuzasidan davra suhbatlari, uchrashuvlar tashkil etilib, o'quv va laboratoriya xonalariga tashriflar amalga oshirildi.